Tabiiy fanlar

I qism

1



novda
edutainment

Education Alliance Finland
TIER 1
CERTIFIED

V. Y. Uvarova, G. F. Buzikova, D. V. Sigacheva

Tabiiy fanlar
1-sinf
I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik



PLAGIATGA QARSHI
TEKSHIRILGAN

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

novda
edutainment
Toshkent – 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K: 502:373.3.016(075.2)
KBK 20.18ya71
U 14

Taqrizchilar:

N. M. Usmanova – Toshkent shahridagi 190-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

O. Sh. Yevstafyeva – Toshkent shahridagi 190-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar



Yangi material bilan ishlash



Qalam bilan ishlang



O'ylab ko'ring



Juft bo'lib ishlang



Chiziqlar yordamida tutashtiring




To'g'ri javobni tanlang



Yodda tuting!



Dars yakuni



ISBN 978-9910-672-61-3

© V. Y. Uvarova va b.
© "Novda Edutainment", 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Salom, aziz bolajonlar!

Sizlarni bilimlar olamiga qiziqarli sayohatni boshlaganingiz bilan tabriklaymiz! Ushbu tabiiy fanlar darsligi sizga tabiat sirlarini ochishga, atrofimizdagi olam qanday tuzilganligini tushunishga va unda sodir bo'ladigan hayratlanarli hodisalarni anglashga yordam beradi. Darslikda sayyoramiz, undagi o'simlik va hayvonlar qanday hayot kechirishi bilan tanishasiz. Ishonchimiz komilki, siz bilan birga ko'plab yangi va qiziqarli hodisalarni kashf etamiz! Har bir dars qiziqarli va maroqli bo'lsin!

Yangi kashfiyotlar sari olg'a!

Ob-havoni kuzatish



Har bir dars boshida berilgan ushbu darchani to'ldiring. Tabiatni kuzatishni va ko'rganlaringiz haqida gapirib berishni o'rganing!



havo ochiq

quyosh charaqlab turibdi, osmon musaffo



bulutli

osmonda bulutlar suzib yuribdi, havo qisman ochiq



kamalak

yomg'irdan so'ng quyosh chiqqanda paydo bo'ladi



momaqaldiroq

osmon gumburlab, chaqmoq chaqmoqda



qor

qor yog'moqda, issiq kiyinish vaqti keldi



quyuq bulutli

osmonni quyuq bulut qoplagan



yomg'ir

yomg'ir yog'moqda



shamol

shamol esmoqda

ROMITAN TUMANLIGI
XALQ TA'LIM BO'LIMI
1-UMUMIY TA'LIM MAKTABI
KUTUBXONA
INV. № 1

Bugun tashqarida

harorat

Mustaqillik kuni

1-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni.



O‘zbekiston! Faxrimsan, sen – hur!
Oy-u yulduzlar-la bayrog‘ing mag‘rur,
Shu’lalanib, porlab, osmoning uzra,
Yashnab, quvnab, hilpirar masrur.







Biz go‘zal va betakror mamlakatda yashaymiz. Har yili **1-sentabrni Mustaqillik kuni** sifatida nishonlaymiz.



Mamlakatimizda Mustaqillik kuni qanday nishonlanadi?



O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari haqida so‘zlab bering.









Rasmga qarang. Mamlakatimiz nimasi bilan boy?



harorat

Bugun tashqarida

Bizning mahalla



Mahalla – tumanning odamlar ahil bo‘lib, bir-birini hurmat qilib yashaydigan bir qismi.






Mahallamizda hamma bir-birini yaxshi taniydi, bayramlarga birgalikda tayyorgarlik ko‘radi. Bu yerda odamlar, xuddi bitta katta oiladek, bir-biriga g‘amxo‘rlik qiladilar.

Shuningdek, har bir mahalla o‘z nomiga ega. Mening mahallam **Alisher Navoiy** nomi bilan ataladi. Sizning mahallangiz-chi?






Rasmlarga qarang. Mahallangizda qanday binolar joylashganini belgilang.




supermarket



qahvaxona



sayilgoh



dorixona



bank



maktab

harorat

Bugun tashqarida

Kuz nimalarni olib keladi?



Men uchun kuz rang-barang bo‘yoqlar uyg‘unligini anglatadi. Bu davrda daraxtlar va butalar sariq, jigarrang, to‘q sariq va qizil ranglarga bo‘yaladi.

Men uchun kuz yilning o‘ziga xos davri hisoblanadi. Bu davrda kuzgi hosil yig‘im-terimi boshlanadi. Barcha mevalar, sabzavotlar, rezavorlar va yong‘oqlar kuzda pishib yetiladi.



Rassom kuzning qanday o‘ziga xos xususiyatlarini tasvirlagan? Kuzning yana qanday xususiyatlarini bilasiz?



Kuzgi yaproqlarga qarang va ularning nomini eslab qoling.



kashtan eman chinor terak tol tog‘terak

Sayilgohda to‘kilgan yaproqlardan kuzgi guldasta yig‘ing. Kichkina chiroyli yaproqni tanlang. Uni qog‘oz ustiga qo‘yib, chetidan qalam yuritib chiqing. Hosil bo‘lgan yaproq shaklini bo‘yang.

Bugun tashqarida

harorat

Maktabga eltuvchi yo‘l



Men O‘zbekistonda yashayman.
Mening manzilim: Toshkent shahri,
Xorazm ko‘chasi, 35-uy, 2-xonadon.



Men esa maktab yaqinida yashayman.

Otam bilan xavfsiz yo‘nalishni belgilab, alohida e’tibor talab qiladigan joylarni muhokama qildik, bu yo‘ldan bir necha marta birga yurib o‘tdik.

Men bu yo‘lni eslab qolganimdan keyin, bu yo‘ldan o‘zim mustaqil yura boshladim.

Yo‘lda adashib qolmasligim uchun menda ishonchli xarita – **yo‘nalish varaqasi** bor.



Yo‘nalish varaqasi – bu uydan maktabgacha bo‘lgan xavfsiz yo‘l sxemasi.



Men maktabga xavfsiz borish uchun yo‘lda o‘zimni to‘g‘ri tutishni va yo‘limda uchraydigan xavf-xatardan qanday qochish kerakligini bilaman.



Xavfsizlik qoidalarini o‘qing, o‘rganing va bir-biringizga aytib bering. Darslikning oxirida berilgan ilovaga qarang.

Jasurning yo'nalish varaqasiga qarang. Uni to'ldirish uchun qanday ma'lumotlar kerak? Sxema bo'yicha Jasur qayerda yashashini aniqlash mumkinmi? Jasur maktabga borishi uchun yo'lni kesib o'tishi kerakmi? U qanday binolar yonidan o'tadi?

Yo'nalish varaqasi






Familiyam Musayev

Ismim Jasur

195-maktabning

1-"A" sinf o'quvchisiman



Uy manzilim Toshkent shahri, Ibrohimov kõchasi, 4-uy

Otamning telefon nomeri +998767446062 Bahrom

Onamning telefon nomeri +998709451270 Gulnora

Uydan maktabgacha bo'lgan yo'nalishingizni chizing. Agar qiynalsangiz, ota-onangizdan yordam so'rang. Darslikning oxirida berilgan ilovadan foydalaning.

Bugun tashqarida

harorat

Mening maktabim. Mening sinfim

Maktab – bilim oladigan o‘quv muassasasi.

Bilimlar maskani maktabim mening,
Birinchi sinf men uchun oilam kabi.
Shirinso‘z, mehribon ustozlarimning,
Sabog‘i-yu, do‘stlarim – qiziqdir bari!



Maktabimizda ko‘plab keng **o‘quv xonalari**, ko‘rkam katta **majlislar zali**, **ovqatlanish xonasi** va keng **sport zali** mavjud.

Maktabda o‘zni tutish qoidalari haqida gapirib bering.

Rasmga qarang. Rasmdagi predmetlar sizning sinfingizdagi predmetlardan qanday farq qiladi? Ularning o‘xshash tomonlarini toping.



Kun tartibi – bu biz har kuni hayotimizda amal qilishimiz kerak bo‘lgan tartib.



Men **kun tartibiga** rioya qilaman. Uyqudan uyg‘onib, tishlarimni yuvaman, nonushta qilaman va maktabga boraman. Darslar tugaganidan keyin tushlik qilaman, uy vazifasini bajaraman, o‘ynayman, kechki ovqatni yeyman va har kuni bir vaqtda uxlayman. Shunday qilib, **kun tartibi** tufayli men barcha muhim ishlarni bajarishga va vaqtida dam olishga ulguraman.



Rasmlarga qarang. To‘g‘ri ketma-ketlikni ko‘rsating. O‘z kun tartibingiz haqida so‘zlab bering.

harorat

Bugun tashqarida


Men nimalarni ko'ryapman?

predmetlar

tabiiy

inson tomonidan yaratilgan



tabiat

jonli

jonsiz




Rasmdan **jonli** va **jonsiz** tabiatni toping. Jonli tabiatni , jonsiz tabiatni , inson tomonidan yaratilgan obyektlarni esa bilan belgilang.





Atrofimizdagi predmetlar har xil moddalardan yasalgan: yog'ochdan yasalgan predmetlarni ✏, plastmassadan yasalganlarini ✏, shishadan yasalganlarini ✏, qog'ozdan yasalganlarini esa ✏ bilan bo'yang.





Har bir guruhga 2 tadan predmet qo'shing.



Bugun tashqarida

harorat


O‘simliklar qanday bo‘ladi?


Atrofimizni turli xil o‘simliklar o‘rab turadi. Bular – **daraxtlar**, **butalar** va **o‘tlar**.

O‘simliklar jonli tabiatga kiradi. O‘simliklar o‘sib rivojlanishi uchun ularga suv, havo, yorug‘lik va issiqlik kerak. Uyimiz yonida tomorqa bor. Men u yerdagi o‘simliklarni parvarish qilishni yaxshi ko‘raman. Tomorqada madaniy o‘simliklar yetishtiriladi.


Tomorqada qanday o‘simliklar o‘sadi?








Bu o‘simliklarning qaysi qismini iste’mol qilamiz?





Mahallamizda **mevali bog'** bor. U yerda mazali mevali daraxtlar o'sadi. Mahallamiz aholisi bog'da sayr qilishni, mevalar terishni, tabiat go'zalligidan bahramand bo'lishni yaxshi ko'radi.

Bog'da qanday o'simliklar o'sadi?

Xonaki o'simliklar biz uyda yoki xonada o'stirib parvarish qiladigan o'simliklardir. Ular havoni tozalashga, xonani chiroyli va ko'rkam qilishga yordam beradi.

O'simliklar o'sishi uchun ularga yetarlicha **yorug'lik**, **suv** va **parvarish** kerak.


Sinfingizda va uyingizda qanday o'simliklar o'sishini belgilang.



orxideya



kaktus




kapalakgul



aloy



binafsha



dekabrist



monstera



yorongul


Bugun tashqarida

harorat

Hayvonlar qanday bo‘ladi?

Hayvonlar harakatlana oladigan, o‘sadigan va nafas oladigan tirik mavjudotlardir. Ular o‘rmonlarda, tog‘larda, suvda, ayrimlari esa odamlarga yaqin joylarda yashaydi.

Rasmlarga qarang. **Yovvoyi hayvonlarni** ✎, **uy hayvonlarini** ✎ bilan bo‘yang.






Sayyoramizda turli xil jonivorlar: **baliqlar, qushlar, hayvonlar, hasharotlar** yashaydi.



Barglar orasidan hayvonlar rasmini toping. Ularni bo'yang.



harorat

Bugun tashqarida


O‘rmon va o‘tloq

Keng o‘tloqda arilar,
Kapalaklar uchadi.
Guldan yozilgan gilam
Bahri dilni ochadi.



- O‘tloqda qanday o‘simliklar o‘sadi?
- O‘tloqda qanday jonivorlar yashaydi?

Hasharotlar 6 ta (3 juft) oyog‘i bor jonivorlardir.



O‘ylab ko‘ring, nima uchun asalarilar qora va sariq, chigirtkalar esa yashil rangda bo‘ladi?

O‘rmon bu – sirli olam,
Daraxtlar o‘sar ko‘rkam.
Qush navosi, sof havo,
Beradi tanga davo.



O‘tloq o‘rmondan qanday farq qiladi? O‘rmonda qanday hayvonlar yashaydi?

O‘rmonda va o‘tloqda o‘zni tutish qoidalariga qarang. Yana qanday o‘zni tutish qoidalarini bilasiz? O‘z belgingizni chizing.



gulxan yoqmang



gullarni yulmang



daraxt shoxlarini sindirmang



kapalaklarni tutmang



gullarni bosib, payhon qilmang

.....


.....

Bolalar o‘rmonda va o‘tloqda o‘zni tutishning qanday qoidalarini buzishdi?




Hayvonlar usti jun bilan qoplangan jonivorlardir.

Rasmlarga qarang. Ularda tasvirlangan hayvonlar haqida bilganlaringizni ayting.



Buxoro bug‘usi | mushuk | quyon | ayiq | tuya




harorat

Bugun tashqarida


Qushlar va baliqlar

Qushlar tumshug'i, qanotlari bo'lgan va tanasi patlar bilan qoplangan jonivorlardir.

Ko'pchilik qushlar ucha oladi. Ba'zilari, masalan, pingvin va tuyaqushlar ucha olmaydi. Qushlar don, hasharotlar va baliqlar bilan oziqlanadi. Ular o'rmonlarda, dalalarda va odamlarga yaqin joylarda yashaydi.



Rasmlarga qarang. **Uy parrandalarini** ✎, **yovvoyi qushlarni** ✎ bilan bo'yang.




Baliqlar tanasi tangachalar bilan qoplangan, suvda yashovchi jonivorlardir.

baliqlar

dengiz baliqlari

daryo baliqlari




skat




tunes




mayda baliq




cho'rtanbaliq




akula



laqqa baliq



Nuqtalar ustidan qalam yurgizib chiqing. Bo'yang.



Bugun tashqarida

harorat

Taqvim. Yil fasllari


Taqvim – bu hafta va oylarga bo'lingan tegishli yil kunlari ro'yxati.

Uning yordami bilan biz yilning ma'lum bir vaqti qachon boshlanishi, ba'zi tadbirlarga necha kun qolganligi haqida bilib olishimiz, shuningdek, tug'ilgan kunlarni va boshqa ishlarni rejalashtirishimiz mumkin.

Dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma – **ish kunlari (maktabda o'qish kunlari)**.

Shanba va yakshanba – **dam olish kunlari**.

Taqvimda **bayramlar** va **dam olish kunlari** qizil rangda ko'rsatilgan.





- Akmal va Madina tuzgan taqvimlarga qarang. Rasmga qarab ish kunlari haqida aytib bering.
- Dam olish kunlariga e'tibor bering. Qahramonlarimiz nima bilan band bo'lishgan?
- Siz shanba va yakshanba kunlarini qanday o'tkazasiz?

Dekabr

DUSHANBA	SESHANBA	CHORSHANBA	PAYSHANBA	JUMA	SHANBA	YAKSHANBA
1	2	3 Xalqaro nogironlar kuni 	4	5	6 	7 
8 Konstitutsiya kuni 	9	10 Madhiya qabul qilingan kun 	11	12	13 	14 
15 Choy ichish kuni 	16	17	18	19	20 Onamning tug'ilgan kuni 	21 Qishki quyosh turishi kuni 
22 Xokkey kuni 	23	24	25	26	27 	28 
29 Ta'til 	30	31 				



1. Bu oy haftaning qaysi kunidan boshlanadi?
2. 12-sana haftaning qaysi kuni bo'ladi? 20-sana-chi?
3. Dekabr oyidagi bayram kunlari nomini ayting.
4. Oy haftaning qaysi kunida tugaydi?




Fasllarning almashinishini kuzatish qiziqarli. Har bir fasl – **qish**, **bahor**, **yoz**, **kuz** o'ziga xos go'zallikka ega.

Rasmga qarang. Bu kitobning har bir sahifasida nimalar tasvirlangan? Qaysi sahifa sizga ko'proq yoqdi? Nima uchun?









2

1



Har bir faslga mos keladigan rasmlarni tanlang va nomerlang.





Bugun tashqarida

harorat

Qishda tabiat

Rasmda qanday jonivorlar tasvirlangan? Ular qishni qanday o'tkazishi haqida so'zlab bering.




chumchuq
olmaxon
chittak
qarg‘a
shimol tulkisi
tulki
quyon
tipratikan
bo‘rsiq
qunduz
sichqon
burunduq

Bu jonivorlardan qaysilari qishki uyquga ketadi?



Rasmdagi hayvonlar qanday inda yashashini ayting. Bunday inlarda yana qanday hayvonlar yashaydi?




Bu qushlardan qaysilari qishda janubga uchib ketadi?

Qushlarga don bering

Qushlarga don bering qirovli qishda
Toki har tarafdan qayta va qayta,
Kelsin uchib ular to‘da va to‘da
O‘z uyidek, ayvoningizga.
Uncha qimmat emas ularning doni,
Bir hovuch bo‘lsa, bas –
Yetadi “noni”.
Yetar, ularga qo‘rquv sololmas
Ortiq qishning sovuq bo‘roni.

A. Yashin



Bugun tashqarida

harorat

Qishki hodisalar

Qishda kunlar **qisqaroq**, tunlar **uzunroq** bo'ladi. Sovuq tushib, daryo va ko'llar muzlaydi.



Topishmoqlarni toping. Qaysi rasmda qish tasvirlanganini aniqlang. Buni qanday alomatlarga qarab bildingiz?



Ayoz bobo novvot sotdi,
Olgan edim, qo'lim qotdi.

.....

Yozib kumush poyandoz,
Sovuqda elar shakar.
Sharbatsiz yasar novvot,
Toping siz bermay shahar.

.....



Alifbo harflarining tartib nomeridan foydalanib, yashiringan jumlani toping.

16	8	27	10	8		7	14	3	8	18	1	11	1	17

Qishda tabiatdagi o‘zgarishlarni kuzatish mumkin.

Qor yog‘ishi bulutlardagi mayda suv tomchilarining havo harorati pasayishi natijasida muzlashi hamda o‘zaro birikib, qor parchalarini hosil qilishi va yerga tushishi hodisasidir. Ko‘pincha endigina yog‘gan mayin, yumshoq qor **quruq qor** deb ataladi.

Qor kunduzi havo iliq bo‘lganda eriydi va kechasi sovuq havoda muzlab, yupqa muz qatlamini hosil qiladi. Bu hodisa **yaxmalak** deb ataladi.

R	O	Q	SH	I	G‘	O	Y	I
3	2	1	8	9	6	5	4	7
.....			.....					

O	R	Q	CH	I	K	K	O‘	I	S
2	3	1	6	8	7	4	5	10	9
.....			.....						

R	U	Q	Q	U	O	Q	R
3	4	1	5	2	7	6	8
.....					.....		


- Harflarni tartib bilan joylashtirib, so‘zlar hosil qiling va yozing.



Shamol aralash kuchli qor yog‘ishi **bo‘ron** yoki **qor bo‘roni** deb ataladi. Ba’zan bo‘ron shunaqa kuchli bo‘ladiki, yer ham, osmon ham ko‘rinmay qoladi. Ba’zida esa shamol qorni yer bag‘irlab uchirib yuradi. Bu hodisa **izg‘irin** deb ataladi.



Ikkita bir xil qor parchasini toping.





Bugun tashqarida

harorat

Men nimalarni bilaman?





Men atrof-olamni o‘rganishni yoqtiraman. Men o‘ylay olaman, tinglay olaman, taqqoslay olaman, gapira olaman.

Men yilning turli vaqtlarida sodir bo‘ladigan tabiiy o‘zgarishlarni, hayvonlar va o‘simliklar hayotini tomosha qilishni yaxshi ko‘raman. Beshta ishonchli yordamchi bizga atrofimizda bo‘layotgan barcha narsalarni bilishga yordam beradi. Bu bizning **sezgi a’zolarimizdir**.





Harflarni tartib bilan joylashtirib, so‘zlar hosil qiling va yozing.



SH	I	T	E	SH	I
6	3	4	1	2	5

.....



M	T	’	A
4	1	3	2

.....

L	I	B	SH	I
7	6	5	9	8

.....



I	R	SH	O‘	K
4	3	5	2	1

.....



SH	A	L	B	U
2	4	3	5	1

.....

I	S	H
7	8	6

.....

L	I	Q	SH	I
11	12	9	13	10

.....



I	D	H
2	3	1

.....

L	I	B	SH	I
6	7	4	8	5

.....



Sezgi a’zolari nomini ayting. Ular inson hayotida qanday rol o‘ynaydi? Nima uchun sezgi a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish kerak?

Rasmlarga qarang. Ularda qanday sezgi a'zolari ishtirok etgan?



- ○ ta'm bilish
- ○ eshitish
- ○ ko'rish
- ○ hid bilish
- ○ ushlab his qilish

- ○ ta'm bilish
- ○ eshitish
- ○ ko'rish
- ○ hid bilish
- ○ ushlab his qilish



Sezgi a'zolarini ular qabul qilayotgan ma'lumotlar bilan tutashtiring.
















harorat

Bugun tashqarida


Suvning holatlari

Suv – ajoyib tabiiy modda. Yilning sovuq faslida suv yaxlab, **qor** yoki **muzga** aylanadi. Qor yoki muz erisa, yana qaytib suvga aylanadi. Agar suv qattiq qizdirilsa, u asta-sekin parlanadi, ya'ni **bug'ga** aylanadi.



Tabiatdagi tuman hodisasi qaynayotgan qozon yoki chovgumdan chiqayotgan bug'ning xuddi o'zidir. Suv bug'lari osmonga ko'tarilib, ularning massalari bir joyga to'planadi. Pastdan biz ularni **ulkan bulutlar** yoki **bulutlar** sifatida ko'ramiz. Baland osmonda suv bug'lari yana soviydi va yerga yomg'ir, do'l yoki qor bo'lib qaytib tushadi.

Shunday qilib, suv tabiatda uchta holatda bo'ladi: **suyuq**, **qattiq** va **gazsimon**.





Suv – rangsiz, shaffof suyuqlik. Suvsiz o'simliklar ham, hayvonlar ham yashay olmaydi.



Rasmlarga qarab, suvning holati haqida partadoshingizga aytib bering.




Suvdan foydalanishda tejamkorlik tasvirlangan rasmlarni ✎, isrofgarchilik tasvirlanganlarini esa ✎ bilan belgilang.






Tabiatda suv aylanma harakatda bo‘ladi: qayerdadir bug‘lanadi, qayerdadir yog‘in bo‘lib tushadi.



Rasmlarga qarab, suvning holati qanday o'zgarishini aytib bering. Bu o'zgarishlar nimaga bog'liq?



Rasmlarga qarang. Suv yana nimalarga aylanishi mumkin? Yordamchi so'zlardan foydalanib, ularni yozing.



Foydalanish uchun so'zlar: qirov, shudring, do'l, qor, muz, bug', tuman.

Bugun tashqarida

harorat

Tabiat hodisalari



Tabiatda hamma narsa o‘zgarib turishini bilasizmi? Masalan, **issiq kunlardan** keyin **salqin kunlar** keladi. Kuzdan keyin qish, qishdan keyin bahor, bahordan keyin esa yoz keladi.

Tabiatda o‘zgarishlar bir kun ichida sodir bo‘lishi mumkin. Bugun tabiatda qanday o‘zgarishlarni sezdingiz?





Insonga bog‘liq bo‘lmagan barcha tabiiy o‘zgarishlar **tabiat hodisalari** deb ataladi. Tongda quyosh chiqishi, tundan keyin kun kelishi, havo ilishi, keyin birdan sovib, yomg‘ir yoki qor yog‘ishi, qushlarning uchib kelishi, daraxtlarning gullashi – bularning har biri **tabiat hodisalariga** misol bo‘ladi.




Jonli tabiatga tegishli doirachalarni ✎, jonsiz tabiatga tegishlilarini esa ✎ bilan bo‘yang.



xazonrezgi



gullarning ochilishi




chaqmoq chaqishi



daraxtlarning meva tugishi



qor yog‘ishi



tuxumdan palapon ochib chiqishi

O‘	R	N	O	B
2	3	5	4	1

.....

A	K	L	M	A	X	A	Y
7	8	6	4	5	3	2	1

.....

V	I	Q	O	R
5	2	1	4	3

.....

QISH

R	I	M	Y	O	G‘
6	5	3	1	2	4

.....

KUZ

X	I	G	A	Z	E	R	N	O	Z
1	10	9	2	8	7	6	5	4	3

.....

M	U	N	T	A
3	2	5	1	4

.....




M	O	R	I	D	O	Q	L	A	Q	M	A
1	2	10	9	8	11	12	7	6	5	3	4

.....



M	A	K	K	A	L	A
3	6	1	7	4	5	2

.....







L	U	L	G	A	R	I	SH	I	L	CH	I	O
4	2	3	1	5	6	9	12	13	10	8	11	7

....



G	H	O	M	O	R	O
5	7	6	4	1	2	3

.....



Z	A	J	I	M	A	R	A
3	6	1	4	7	2	5	8

.....

Q	I	SH	P	I	K	I	L	CH	I
5	9	3	1	4	10	2	8	6	7

.....



1. Sardor qor bilan qoplangan istirohat bog'ida sayr qilish uchun kiyim tanladi. U nimani ortiqcha tanlagan?



2. Madina qishda bo'ladigan tabiat hodisalari tushirilgan suratlarni to'plamoqchi. U qaysi suratlarni tanlashi kerak?



3. Umida suratlar tagiga tabiat hodisalari nomini yozib chiqmoqchi. Unga to'g'ri nom topishda yordam bering.



- ◯ kun botishi
- ◯ chaqmoq chaqishi
- ◯ shamol
- ◯ xazonrezgi
- ◯ Quyosh tutilishi
- ◯ kamalak


4. Aziza qish oylarini sanab bermoqchi. U qaysi oylarni aytishi kerak?

- ○ sentabr, oktabr, noyabr
- ○ mart, aprel, may
- ○ dekabr, yanvar, fevral

5. Jasur jonsiz tabiatga tegishli kuzgi hodisalarni aytib bermoqchi. U nimalarni tanlashi kerak?

- ○ xazonrezgi
- ○ qirov
- ○ maysalarning qurishi
- ○ havo sovishi
- ○ izg'irin
- ○ qushlarning uchib ketishi
- ○ jonivorlarning qishki uyquga tayyorgarligi
- ○ tuman

6. Akmal rasmga qarab, jonivorlar qanday qishlashini aytib beryapti. Akmal bu rasmda nechta jonivorni topgan?



Jonivorlar soni ☐ ta.

Sana va rasmlarga qarang. Bu qaysi yil fasli ekanini belgilang.

1-oktabr





21-mart





31-dekabr





1-iyun





www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

Mening Vatanim

1-dars. Mustaqillik kuni 4
2-dars. Bizning mahalla 6
3-dars. Kuz nimalarni olib keladi? 8
4-dars. Maktabga eltuvchi yo'l 10

Dunyoni o'rganamiz

5-dars. Mening maktabim. Mening sinfim 12
6-dars. Men nimalarni ko'ryapman? 14
7-dars. O'simliklar qanday bo'ladi? 16
8-dars. Hayvonlar qanday bo'ladi? 20
9-dars. O'rmon va o'tloq 22
10-dars. Qushlar va baliqlar 26

Tabiat sirlari

11-dars. Taqvim. Yil fasllari 28
12-dars. Qishda tabiat 32
13-dars. Qishki hodisalar 35
14-dars. Men nimalarni bilaman? 38
15-dars. Suvning holatlari 40
16-dars. Tabiat hodisalari 45
O'z bilimingizni tekshiring 48

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Uvarova V.Y.
U 14 Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. I qism / V.Y.Uvarova, G.F.Buzikova, D.V.Sigacheva. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2025. – 52 b.

UO'K: 502.373.3.016(075.2)
ISBN 978-9910-672-61-3 KBK 20.18ya71

O'quv nashri

Vera Yurevna Uvarova
Gulsina Fayazovna Buzikova
Darya Vladimirovna Sigacheva

Tabiiy fanlar
1-sinf
I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2025

Muharrirlar: *M. Mirsalikov, N. Gaipov*
Badiiy muharrir *A. Sobitov*
Musahhih *Z. Gulyamova*
Rassomlar: *T. Daminov, V. Frolov, R. Ismailova, S. Mamedova*
Kompyuterda sahifalovchi *O. Abduraxmonov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 080756, 12.05.2023-yilda berilgan.
07.04.2025-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60×84 1/8. "Arial", "Nunito" garnituralari. Kegli 16.
Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada bo'rlangan MFC 80 g/m² qog'oz.
Shartli b.t. 6,05. Hisob-nashriyot t. 7,23. Adadi 628461. Buyurtma raqami 25-75.

"Novda Edutainment" MCHJ.
Toshkent sh., Mirobod tumani, T. Shevchenko ko'chasi, 21-uy.

"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.
Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Yo‘nalish varaqasi

fotosurat




Familiyam .....

Ismim .....

..... -maktabning

..... -sinf o‘quvchisiman

Yo‘nalish varaqangizni asrang,
Uni portfel cho‘ntagiga joylang.
U sizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatar,
Uyga borar yo‘lni doim eslatar!



Uy manzilim .....

.....


Otamning telefon nomeri .....

Onamning telefon nomeri .....

Сканировано с CamScanner

Xavfsizlik qoidalari

1. Notanish odamlar bilan gaplashmang!
2. Ismingiz va uy manzilingizni aytmang!
3. Telefoningizni begonalarga bermang!
4. Begona mashinaga o‘tirmang!



5. Notanish odamlardan konfet, pul va sovg‘alar olmang!
6. Yo‘l harakati qoidalariga rioya qiling!
7. O‘qituvchingiz ruxsat bermaguncha maktabdan chiqib ketmang!
8. Maktabdan uyga ota-onangiz, akangiz yoki opangiz hamrohligida qayting!
9. Maktabga borishda va uyga qaytishda ota-onangiz ko‘rsatgan xavfsiz yo‘ldan yuring!
10. Agar uyga kirish yo‘lagida, liftda yoki lift atrofida begona odamlar turgan bo‘lsa, u yerga aslo kirmang!



11. Agar sizga kuch ishlatishsa yoki sizni olib ketmoqchi bo‘lishsa, bor kuchingiz bilan baqiring:

YORDAM BERING! MEN SIZLARNI TANIMAYMAN!

MEN SIZLAR BILAN HECH QAYERGA BORMAYMAN!

E’tiborni jalb qilishga harakat qiling, yaqin atrofda odamlar bo‘lsa, yordam so‘rang. Qarshilik qiling!

Agar kimdir sizga shubhali tuyulsa, kattalarga aytishdan qo‘rqmang!

Tabiat taqvimi

